



TERMIZ IQTISODIYOT VA  
SERVIS UNIVERSITETI

# TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL  
ISSN 2992-9016

№1/2026

**Muassis:**  
TERMIZ IQTISODIYOT VA  
SERVIS UNIVERSITETI

**TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi**

**Ilmiy-uslubiy jurnal**

**Bosh muharrir:**

Sattarov Abdusamat  
Umurqulovich

**Bosh muharrir o'rinbosari:**

Qobulov Eshbolta Atamuratovich

**Mas'ul kotib:**

Turayev Baxtiyor Ergashevich

**Dizayner:**

Meyliqulov Shahboz  
Xolmamatovich

**Jurnal bir yilda to'rt marotaba  
nashr etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2023-yil 1-martdagi № 066379-raqamli guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 8-maydagi 370/5-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan hamda iqtisodiyot fanlari bo'yicha dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal "Termiz Publishing center" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:

22.12. 2025.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

"Times New Roman" garnitirulasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 100 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 4.

Jurnalning elektron shakli bilan

<https://scientific.tues.uz>

web saytida tanishish mumkin.

**Tahririyat manzili:**

Termiz sh., "Yulduz" MFY,  
"Ibn Sino" ko'chasi, 38B-uy.

## TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)

L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)

Maxmudov N.M. – i.f.d., prof.

Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.

Pardayev J.M. – i.f.f.d., (PhD).

Absamatov A.E. – i.f.n., dots.

Eshkarayev S.Ch. – k.f.f.d. (PhD), dots.

Ruzmetov B. – i.f.d. prof.

Xudoyqulov X.X. – i.f.d. (DSc), prof.

Abdullayev I.S. – i.f.d., prof.

Xotamov O.Q. – i.f.d., prof.

Otamurodov Sh.N. – i.f.d. (DSc), dots.

Yarmatov Sh. Ch. - i.f.f.d. (PhD).

Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Shodiyev A.A. – i.f.f.d. (PhD).

Jurayev X.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Xakimov Z.I. – i.f.f.d. (PhD).

Amonov M.O. – i.f.f.d. (PhD).

Absamatov A.E. - i.f.f.d. (PhD).

Rahmatullayev B.Ch. – i.f.f.d. (PhD).

Namozov G'.Sh. – i.f.f.d. (PhD).

# MUNDARIJA

## **SH.E.BOBOMURATOVA**

O'zbekiston va uning chegara mamlakat hududlarida til siyosati.....4

## **D.MUQUMOVA**

Ja'far Muhammad Termiziyning "Mendagi Boysun" she'ri: lingvistik tahlil.....12

## **D.B.IBODULLAYEVA**

O'zbek va ingliz tillaridagi teatr atamalarining chog'ishtirma tahlili.....15

## **Z.M.AMIRKULOVA**

"Panoh" hikoyasida tarixiy voqelik va badiiy talqin uyg'unlashuvi.....18

## **M.A.MEYLIQULOVA**

O'quvchilarda adabiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari.....22

## **SH.A.DONAYEVA**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda 4K modelining ahamiyati.....25

## **G.E.TURAYEVA**

Texnologiyalashgan jamiyatda bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish .....28

## **M.X.XAYDAROVA**

Magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish.....31

## **F.A.XAYITOVA**

O'quvchilarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishning milliy va jahon tajribasi.....35

## **D.R.YUNUSOV, J.I.UMIROV**

Fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish.....38

## **F.E.JOMONQULOVA, S.B.UZAKOVA**

Yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, ularda axborot imunitetini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanishning o'рни.....42

## **U.A.TASHBAYEVA**

Boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini o'rgatishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi.....47

## **SH.T.TOSHOVA**

Talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari.....51

## **R.I.ESONOVA, N.M.SALOXITDINOVA**

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni 4K modeli asosida tashkil etish metodikasi va baholash mexanizmlari.....54

## **G.Z.ERMATOVA, G.E.TURAYEVA**

Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari.....58

## **D.D.NORQUVATOVA, N.M.SALOXITDINOVA**

STEAM yondashuvining boshlang'ich matematika ta'limidagi ahamiyati.....65

## **M.O.ZARIPOVA, N.M.SALOXITDINOVA**

Zamonaviy ta'limda baholash tizimlarining transformatsiyasi va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....68

## **M.A.NORBOSHEVA, N.ABDIYEVA**

Giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlar.....72

## **G.A.MAMARAJABOV**

Mustaqillik yillarida o'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va amaliy tajriba.....76

## **T.J.YARMATOV, F.J. YARMATOV**

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu Lug'atit Turk" asari etnofolklor manba.....80

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**Norbosheva Maqsuda Achilovna**

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Psixologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

**Abdiyeva Nafisa**

### GIPERAKTIV BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ISHLAR

#### ANNOTATSIYA.

Hozirgi kunda dunyo bo‘yicha maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalar orasida giperaktivlik sindromiga uchrayotgan bolalar soni yildan yilga oshmoqda. Ushbu maqola bolalar giperaktivligi va giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlar mazmuni, usullari, giperaktivlikni qanday ertaroq aniqlash yo‘llari haqida mulohazalar berilgan.

**Tayanch so‘zlar:** giperaktivlik, bola, sindrom, faoliyat, harakat, tezlik, rivojlanish, ta‘sir, ko‘rsatgich, faollik, uyqusizlik, jamoa, o‘zgaruvchanlik, diqqat, xotira, ota-ona, shovqin, g‘ayrioddiylik, qiziqish, shaxs, suhbat, bezovtalik, munosabat, muammo, tashxis, qiziqish.

### ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ РАБОТА С ГИПЕРАКТИВНЫМИ ДЕТЬМИ

#### АННОТАЦИЯ

В настоящее время число детей дошкольного возраста во всем мире, страдающих синдромом гиперактивности, ежегодно увеличивается. В данной статье рассматриваются содержание и методы психолого-педагогической работы с гиперактивными детьми, а также способы раннего выявления гиперактивности.

**Ключевые слова:** гиперактивность, ребенок, синдром, активность, движение, скорость, развитие, воздействие, индикатор, активность, бессонница, команда, изменчивость, внимание, память, родители, шум, необычность, интерес, личность, разговор, тревога, отношение, проблема, диагноз, интерес.

### PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL WORK WITH HYPERACTIVE CHILDREN

#### ABSTRACT

Currently, the number of children suffering from hyperactivity syndrome among preschool children around the world is increasing year by year. This article provides comments on the content and methods of psychological and pedagogical work with hyperactive children, as well as ways to detect hyperactivity early.


**Key words:** hyperactivity, child, syndrome, activity, movement, speed, development, impact, indicator, activity, insomnia, command, variability, attention, memory, parents, noise, unusualness, interest, personality, conversation, anxiety, attitude, problem, diagnosis, interest.

#### KIRISH

Bugungi kunda giperaktivlik yosh bolalar o‘rtasida oldingi davrlarga nisbatan keng tarqalgan agressiv holat hisoblanib, giperkinez deb ham nomlanadi. Faoliyat darajasi yoki haddan tashqari jismoniy harakat bilan tavsiflanadi, aniq maqsadsiz va tezda amalga oshiriladigan faoliyatlar bilan ta‘riflanadi. Bolalardagi giperaktivlik bugungi jamiyatda e‘tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydigan dolzarb muammo bo‘lib, uni hal etish uchun tibbiy, psixologik va pedagogik yondashuvlarning uyg‘unligi talab etiladi. 1968 yilda fanda ilk marotaba mazkur "Bolalarning giperdinamik

sindromi" atamasi paydo bo‘ldi: Giperaktiv- (lotincha “activius” –“faol” va yunoncha “hiper”- “yuqori”), ya‘ni haddan tashqari faol, bu normaning ortiqcha ekanligini ko‘rsatadi. Giperaktivlikni erta aniqlashning ahamiyati juda katta bo‘lib, u bolaning ruhiy, ijtimoiy va o‘quv rivojlanishiga bevosita ta‘sir qiladi. Giperaktiv bolalar tengdoshlari bilan munosabatda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Erta aniqlash ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi va yolg‘izlik yoki rad etilishning oldini oladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Bolalardagi giperaktivlik bolaning yoshiga mos ravishda



normal rivojlanishi uchun odatiy bo'lmagan e'tiborsizlik, chalg'ish, impulsivlik va yuqori giperaktivlik bilan namoyon bo'ladi. Giperaktivlikning dastlabki belgilariga kelsak, Richman, Stivenson va Graham (1982) bolalar namunasida 3 yoshida haddan tashqari faol va bezovta bo'lganlarning uchdan birida 8 yoshida ham bunday muammolar borligini aniqladilar.

**Tahlil va natijalar.** Giperaktivlikning boshlanish yoshi 3 yoshdan 4 yoshgacha va bolalar odatda 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lganda psixologik xizmatlarga murojaat qilishadi (Graham, 1991). (Buitelaar va Van England, 1996). 1966 yilda S.D. Klements, 1972 yilda kanadalik tadqiqotchi Duglasning ishida, o'smirlik yoshida giperaktivlik muammolari bilan Barkley, Fischer, Edelbrock & Smallish, 1990; Gittelman, Mannuzza, Shenker va Bonagura, 1985; Xart, Lahey, Loeber, Applegate & Frick, 1995; Mannuzza va boshqalar (1991) tadqiqotlar olib borganlar.

Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalar tengdoshlaridan juda faolliги va diqqatining beqarorligi bilan ajralib turadi. Giperaktivlik so'zi yunon tilidan olingan "giper" - juda ko'p, lotinchada, "aktivus"-faol degan ma'noni anglatadi. Demak, giperaktivlik tom ma'noda faollikni oshirishni anglatadi. Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalardagi giperaktivlik-bu maktabgacha ta'lim talim tashkilotida va uyda jismoniy faollikning yuqori darajasidir. Bu bolaning harakatga bo'lgan fiziologik ehtiyojlarining tabiiy ko'rinishi bo'lishi mumkin, ziddiyatlarga bog'liq travmatik vaziyatlar va tarbiyadagi nuqsonlar ta'sirida bo'ladi va hayotning birinchi yillaridan yoki hatto oylaridan boshlab aniqlanishi mumkin. Bunday bolalar giperaktiv bolalar deyiladi.

Bolalar giperaktivligi giperdinamik sindromi ta'sirida kelib chiqib, bir xil yoshdagi va bir xil rivojlanish parametrlariga ega bo'lgan boshqa bolalarga nisbatan yuqori faollik darajasi hisoblanadi. Giperaktiv bolalarning xatti-harakatlari avvaliga ota-onalarni quvontirishadi. Ular o'yin maydonchalari va aravachalaridan chiqib ketishadi, tez-tez yiqilishadi, hamma joyga ko'tarilishadi, hamma narsani ag'darishadi. Chaqaloqlar 1-2 yoshida allaqachon faol va haddan tashqari harakatchan bo'lib, onalar ularga deyarli yeta olmaydilar.

Giperdinamik faollikning eng aniq sindromi maktabgacha (4-5 yosh) va boshlang'ich maktab yoshida (6-8 yosh) namoyon bo'ladi. Bola bolalar jamoasiga kiradi va ta'limning

zamonaviy sur'atlariga mos kelmaydi. Unda giperaktivlikning barcha belgilari darhol paydo bo'ladi: tarbiyachi yoki o'qituvchi bolaga dosh berolmaydi, u o'quv dasturini va xatti - harakatlarini o'zlashtirmaydi. Bunday bolalarda harakatchanlik, diqqatini ma'lum narsaga uzoq vaqt to'play olmaslik, uyqusi yuzaki, tun bo'yi hech qanday sababsiz qichqirish kabi g'ayrioddiy holatlar kuzatiladi.

Giperaktiv bolada mashg'ulotlarga qiziqish tezda yo'qoladi, ko'pincha xato qiladi. Ularni o'ylash, qo'shish, qurish kerak bo'lgan o'yinlar qiziqitirmaydi, ertak tinglash, multfilm tomosha qilish qiyin, ular bir holatda uzoq o'tira olmaydi. Doimo boshqa odamlarning faoliyatiga yoki suhbatiga aralashadi, suhbat davomida suhbatdoshining gapini bo'ladi, savolga oxirigacha quloq solmaydi, tez-tez o'rnidan turadi, agar bezovta bo'lsa oyoq qo'llarini kuchli harakatga keltiradi. Bolani begona shovqin osongina chalg'itadi, unutulchanlik oshadi, kasallikka chalingan bola o'z yoshiga qaraganda ancha kam uxlaydi.

**Natija.** Giperaktivlik sindromining kelib chiqishida mutaxassislar uchta muhim omilni sabab sifatida keltirishgan:

Birinchi sabab - irsiyat ya'ni ota-onadan farzandga o'tadigan irsiy omil hisoblanadi;

Ikkinchisi - prenatal davrida yoki tug'ruq paytida miya hujayralarining shikastlanishi, homiladorlik gipoksiyasi (homila rivojlanishida kislorod yetishmasligi), asfiksiya (bo'g'ilish), tug'ruq vaqti tez yoki uzoq davom etishi, chaqaloqning markaziy asab tizimining buzilishiga olib kelishi kabi holatlar;

Uchinchisi - oiladagi noqulay psixologik muhit, ota-onalar o'rtasidagi nizolar, tarbiyaning luda qattiq yoki yumshoq usullari, turmush tarsi, ovqatlanish, bolaning tempramenti va hokoza ijtimoiy omillar sabab bo'ladi.

Giperdinamik sindromli bolalarning xatti-harakatlarining barcha yoqimsiz xususiyatlariga qaramay, ular ko'plab ijobiy fazilatlariga ega bo'lib, ularning rivojlanishiga ota-onalar alohida e'tibor berishlari kerak. Ya'ni, bunday bolalar topqir va muammoni g'ayrioddiy tarzda hal qilish uchun boshqalar e'tibor bermaydigan yo'lni topa oladi. Bunday bola osonlikcha chalg'iydi, lekin uning atrofidagi dunyoga nisbatan o'ziga xos qarashlari bor.

Giperaktiv bolalar odatda ishtiyoqmand bo'lishadi, ular hech qachon zerikmaydi, ko'p narsalarga qiziqishadi va odatda yorqin

shaxslardir. Bunday bolalar baquvvat va faol, lekin, ko'pincha oldindan aytib bo'lmaydi. Agar ularning maqsadi bo'lsa bu maqsad yo'lida tinmay harakat qiladi.

Giperaktivlik bilan soxta giperaktivlikni farqlash birmuncha qiyin ko'pincha giperaktivlik bolaning odatdagi xatti-harakati bilan adashadi, chunki 3-7 yoshli bolalarning ko'pchiligi juda faol va o'zgaruvchan, his-tuyg'ularini nazorat qilishga qiynalishadi. Agar bola bezovtalanib, ko'pincha chalg'itsa, u holda u giperaktiv deyishadi. Biroq, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun konsentratsiyaning yetishmasligi va uzoq vaqt davomida o'tira olmaslik odatda norma hisoblanadi. Shuning uchun giperdinamik sindromni aniqlash qiyin bo'lishi mumkin.

Agar bolada diqqat yetishmasligi va faollikning oshishi bilan bir qatorda, tengdoshlari bilan munosabatlar o'rnatish muammolari bo'lsa, boshqalarning his -tuyg'ulariga befarq bo'lsa, o'z xatolaridan saboq olmasa, atrof -muhitga qanday moslashishni bilmasa, belgilar patologiyani ko'rsatadi. Agar ota-onalar bolasida giperaktivlik sindromi borligiga shubha qilsalar, pediater yoki bolalar nevrologidan maslahat olish zarur. Shifokor tegishli tekshiruvni tayinlaydi, uni o'tkazish kerak. Haqiqatan ham, giperdinamik sindrom belgilari ostida yanada jiddiy patologiyalar ham yashirilishi mumkin.

Diagnostika uch bosqichni o'z ichiga oladi: Shifokor bolaning xulq -atvori va reaksiyalari, homiladorlik va tug'ishning o'ziga xos xususiyatlari, o'tgan kasalliklar, oila a'zolarining irsiy patologiyalari haqida ma'lumot to'playdi. Maxsus testlar o'tkazadi va natijalarini baholaydi va sarflangan vaqt miqdori, shuningdek, bolaning reaksiyasi va xulq-atvori haqida ma'lumot to'playdi. Odatda bundat testlar 5- 6 yoshli bolalarda o'tkaziladi. Elektroansefalogramma - Bolaning giperaktivligini aniqlashga yordam beradigan asosiy belgilarga qarab tashxis natijalarini olish mumkin bo'lgan tibbiy tekshiruv qurilmasi bo'lib, bu tekshiruv bolaning miyasi holatini baholash imkonini beradi. Bu tekshiruv og'riqsiz va zararsizdir.


**Muhokama.** Giperaktivlik belgilarida bolada aql bovar qilmaydigan faolligi oshadi. U aylana oladi, sakraydi, yuguradi, hamma yoqqa chiqadi, hatto inkonsizligini bilsa ham bajarishga kirishish kabi xatti- harkatlar kuzatiladi. Ushbu kasallikda bolaning ovqatlanishi ham muhim bo'lib ko'pincha bola qorni to'yganligini his qilmaydilar oqibatda me'yorida ko'p ovqalish

holatlari kuzatiladi. Balanssiz ovqatlanish bilan bolalarning metabolizmi buziladi, bu asabiylashish va kayfiyatni tushirishi mumkin. O'sayotgan yosh organizmga oqsil, vitamin va minerallar kerak. Ratsionda markaziy asab tizimiga foydali ta'sir ko'rsatadigan "Omega-3" yog'lari ko'p bo'lgan ovqatlar bo'lishi kerak. Lekin shirinliklar va uglevodlar miqdorini kamaytirish ,meva va sabzavotlar berish yaxshidir. Davolash paytida bolaning xatti -harakatlarini psixologik tuzatish majburiydir.

Psixolog bolaga o'z harakatlarini yaxshiroq tushunishga yordam berishi, shuningdek ota -onalarga bunday bola bilan munosabatlarni o'rnatish va uni tarbiyalash va o'qitish usullari haqida maslahat berishi uchun psixolog qabuliga boorish juda foydalidir. Bolalarning ko'pchiligi, agar asoratlari bo'lmasa va o'z vaqtida davolangan bo'lsa, bu kasallikdan sog'ayib ketish mumki, ayrim hollarda, sindrom kattalarga ham o'tishi mumkin, ayniqsa bolaga o'z vaqtida va etarli yordam ko'rsatilmasa. Giperaktiv bolani tarbiyalash qiyin bo'lib, farzandiga bo'lgan kuchli muhabbatda ham, ota -onalar har doim ham uning barcha hiyla -nayranglariga dosh berolmaydilar, ba'zida taqdirga tan berib, kasallik bilan kurashish va shug'ullanishni to'xtatadilar.

Giperaktivlik terapevtik xulq-atvorni talab qiladi, unda ko'proq mutaxassislar va bolaga yaqin odamlar: psixologlar, o'qituvchilar, oila a'zolari, nutq terapevtlari, fizioterapevtlar ishtirok etadilar. Tibbiy yoki psixologik terapiya orqali davolash mumkin bo'lib, ba'zan ikkalasining kombinatsiyasi kerak bo'ladi. Xulq-atvorli terapiya, ota-onalarning qo'llab-quvvatlashi va tarbiyachilar yoki o'qituvchilarning yordami bilan birga bolalarning xatti-harakatlarini o'zlashtirishda juda yaxshi natijalar berishi mumkin. Dori-darmonlar faqat ma'lum shartlar bilan belgilanadi. Bu ularning tinchlanishiga va boshqariladigan xatti-harakatlariga yordam beradi.

Bolaning sifatli hayotini ta'minlashda oila va yaqin insonlar katta yordam berishlari o'z samarasini beradi. Ko'p hollarda giperaktivlik darajasi yoshga qarab kamayadi. Ammo davolanish balog'at yoshiga qadar davom etadigan holatlar ham mavjud. Shunday yomon vaziyatlarning oldini olish maqsadida dunyo bo'yicha bu sindromning profilaktikasi, erta aniqlash yuzasidan qator ilmiy ishlar olib borilmoqda.



Giperaktivlikni erta aniqlashning ahamiyati juda katta bo'lib, u bolaning ruhiy, ijtimoiy va o'quv rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Quyida asosiy jihatlari keltirilgan:

1. O'quv jarayoniga ijobiy ta'siri:

Giperaktivlik erta aniqlansa, bolaning diqqatini jamlash, topshiriqlarni bajarish va darsga moslashishi uchun maxsus pedagogik yondashuvlar qo'llaniladi. Bu o'quvdagi muvaffaqiyatsizliklarning oldini oladi.

2. Xulq-atvor muammolarini kamaytirish:

Erta tashxis orqali impulsivlik, tajovuzkorlik yoki intizomsizlik kabi muammolar vaqtida tuzatiladi. Natijada bola jamoadagi qoidalarga osonroq moslashadi.

3. Ijtimoiy moslashuvni yaxshilash:

Giperaktiv bolalar tengdoshlari bilan munosabatda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Erta aniqlash ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi va yolg'izlik yoki rad etilishning oldini oladi.

4. Emotsional muammolar profilaktikasi:

Davolanmagan giperaktivlik keyinchalik past o'z-o'zini baholash, xavotir yoki depressiyaga olib kelishi mumkin. Erta choralar bu xavflarni sezilarli darajada kamaytiradi.

5. Ota-onalar va pedagoglar uchun yo'l-yo'riq:

Vaqtida aniqlangan holatda ota-onalar va o'qituvchilar bolaning xususiyatlarini tushunib, unga to'g'ri munosabatda bo'lishni o'rganadilar. Bu oiladagi va maktabdagi nizolarni kamaytiradi.

6. Individual yordam va rehabilitatsiya imkoniyati: Erta aniqlash psixologik maslahatlar, xulq-atvor terapiyasi va zarur hollarda tibbiy yordamni o'z vaqtida boshlash imkonini beradi.

**Xulosa.** Giperaktivlikni erta aniqlash bolaning to'laqonli rivojlanishi, sog'lom shaxs bo'lib shakllanishi va jamiyatga muvaffaqiyatli moslashuvi uchun muhim shart hisoblanadi. Giperaktiv bolalar bilan ishlashda psixologik bilimlarning o'rnini ham nihoyatda muhim bo'lib, bu bilimlar bolaning xulqi, emotsional holati va ijtimoiy moslashuvini to'g'ri tushunish hamda samarali yordam ko'rsatishga xizmat qiladi.

Psixologik bilimlar mutaxassis, pedagog va ota-onalarga giperaktivlikni oddiy "intizomsizlik" emas, balki bolaning nerv-psixik rivojlanishiga xos xususiyat sifatida qabul qilishga yordam beradi. Bu noto'g'ri baholash va jazolashning oldini oladi.

Har bir giperaktiv bola o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Psixologik bilimlar bolaning temperamentini, diqqat, xotira va tafakkur

xususiyatlarini hisobga olib, individual ta'lim-tarbiya strategiyasini ishlab chiqish imkonini beradi. Psixologik yondashuvlar orqali:

- impulsivlikni nazorat qilish,
- diqqatni jamlashni rivojlantirish,
- ijobiy xulqni mustahkamlash imkoniyati yaratiladi. Bu jarayonda rag'batlantirish va motivatsiya muhim o'rin tutadi.

Giperaktiv bolalarda tez jahllanish, xavotir va emotsional beqarorlik kuzatilishi mumkin. Psixologik bilimlar bolaga o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarishni o'rgatishga yordam beradi.

Psixologik treninglar va o'yinlar yordamida bolada muloqot, hamkorlik va nizolarni tinch yo'l bilan hal etish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu tengdoshlari bilan munosabatlarni yaxshilaydi.

Psixologik bilimlarga ega mutaxassislar ota-onalar va o'qituvchilarga:

- to'g'ri talab qo'yish,
- izchil qoidalar o'rnatish,
- bolani qo'llab-quvvatlash usullarini o'rgatadilar. Bu muhitning barqaror bo'lishini ta'minlaydi.

Psixologik bilimlar yordamida ikkilamchi muammolar — past o'zini baholash, tajovuzkorlik yoki ijtimoiy chekinishning oldi olinadi. Giperaktiv bolalar bilan ishlashda psixologik bilimlar — bu samarali yordamning asosi bo'lib, ular bolaning imkoniyatlarini ochish, ijobiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va jamiyatga moslashuvini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Nishonova Z.T. "Psixologik xizmat" -2006.
2. Jalilova X., Tursunova M., "Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi" o'quv qo'llanma. Toshkent-2017.
3. Nishonova Z.T., Alimbayeva Sh.T., Sulaymonov V. "Psixologik xizmat" 2014.
4. Гиперактивные дети: коррекция психомоторного развития: Учеб. пособие, Под ред. М. Пассольта. – М.: Академия, 2004.